



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI  
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM  
O'ZGARISHI VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI  
GIDROMETEOROLOGIYA  
XIZMATI AGENTLIGI

Jamoatchilik kengashini  
tashkil etish to'g'risida

## B U Y R U Q

73-T-son 18.06.2025y.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati agentligi (keying o'rinda – Agentlik) va jamiyat o'rtasida ta'sirchan hamda samarali muloqotni yo'lga qo'yish, Agentlik faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishni ta'minlashni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, amalga oshirilayotgan faoliyatning ochiqligi va shaffofligini, fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash maqsadida, **buyuraman**:

1. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-iyuldagli PQ-3837-sen qarori talablari ko'ra quyidagilar:

Gidrometeorologiya xizmati agentligi jamoatchilik kengashi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

"Gidrometeorologiya xizmati agentligi jamoatchilik kengashi to'g'risidagi nizom" 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar Jamoatchilik kengashining **asosiy vazifalari** etib belgilansin:

2.1 qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarni, jamiyat manfaatlarni himoya qilish sohasida qonun hujjatlari talablari ijrosini ta'minlash, davlat organi zimmasiga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlari daxil qiluvchi vazifalar va funksiyalarni bajarish, ixtisoslashgan xizmatlarni ko'rsatish, ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihibar va dasturlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha Agentlik mansabdor shaxslarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

- 3.6** jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlariga Agentlik tomonidan berilgan javoblarning sifatini tanlab olgan holda tahlil qilish;
- 3.7** Agentlik xodimlarining roziligi bilan ularning uy-joy, ijtimoiy-maishiy va xizmat shart-sharoitlari bilan tanishish;
- 3.8** jamoatchilik kengashi majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni yoritish bo'yicha ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;
- 3.9** yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun konferensiyalar, forumlar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish.
- 4.** Direktorning axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi-matbuot kotibi (**Toshxodjaeva**) mazkur buyruqning mazmuni va ahamiyati keng yoritilishini hamda hududiy gidrometeorologiya markazlari va tizim tashkilotlariga yetkazilishini tashkil etsin.
- 5.** Mazkur buyruq bajarilishi nazorati direktor o'rinosi I.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Direktor



Sh. Khabibullayev

**Gidrometeorologiya xizmati agentligi huzuridagi  
jamoatchilik kengashi tarkibi**

T/r	F.I.Sh.	Egallagan lavozimi	Pochta manzili	Telefon raqami
1.	Khabibullayev Sherzod Khabibullaxo'jaevich	Agentlik direktori – <b>Jamoatchilik kengashi raisi</b>	info@meteo.uz	(55) 503 12 22
2.	Po'latov Baxtiyor Alimovich	Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati – <b>Jamoatchilik kengashi raisi o'rinnbosari</b>	bahtiyor_bek@mail.ru	(99) 827-00-02 (78) 238-21-57
3.	Fayzieva Sevara	Toshkent shahar Ekologiya partiyasi raisi, Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi deputati	toshkentsh@ecouz.uz	(90) 175-30-55
4.	Hikmatov Fazliddin Hikmatovich	Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Quruqlik gidrologiyasi va meteorologiya kafedrasi professori	hikmatov_f@mail.ru	(93) 514-06-52
5.	Xolmatjonov Baxtiyar Maxamatjonovich	Iqlimni modellashtirish laboratoriyasi mudiri	b.xolmatjanov@nuu.uz	(99) 878-51-27
6.	Buriev Salimjon Samedjanovich	Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktorining Ilmiy ishlari bo'yicha o'rinnbosari	eco_nii@uznature.uz b.salimjo_7575@mail.ru	(97) 775-08-22
7.	Kadirov Baxtiyor Sharofiddinovich	Gidrometeorologiya ilmiy tadqiqot instituti Bulutlar fizikasi va atmosfera jarayonlariga faol ta'sir etish laboratoriyasi mudiri	bkadirov53@gmail.com	(90) 174-85-86
8.	Imamjanov Xasan Axmedjanovich	Gidrometeorologiya ilmiy tadqiqot instituti Amaliy meteorologiya bo'limi boshlig'i	X.Imamjanov@nigmi.uz	(93) 387-01-09
9.	Turgunov Daniyar Mannapjanovich	Gidrometeorologiya ilmiy tadqiqot instituti direktori	turgunovd1987@gmail.com	(90) 903-58-88
10.	Abdulaxatov Erkin Ikromovich	Amaliy iqlimshunoslik laboratoriyasi mudiri	erik_sen@mail.ru	(91) 294-44-94
11.	Zaynidinova Albina Renatovna	Aviyatsiyani meteorologik ta'minlash boshqarmasi boshlig'i	aviation@meteo.uz	(99) 862-11-48

12.	Narzullayev Azimjon Baxriyovich	Gidrometeorologik ta'minot boshqarmasi boshlig'i	meteo_supply@meteo.uz	(97) 137-38-52 (55) 503 21 20 (222)
13.	Plotsen Marina Aleksandrovna	Atrof-muhitning ifloslanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish bo'limi yetakchi muhandisi	marpl@mail.ru	(90) 316-24-20
14.	Zaxidov Qaxramon	Toshkent shahar gidrometeorologiya markazi boshlig'i	oae@meteo.uz	(78) 150-86-14
15.	Toshxo'jaeva Nigora	Direktorning axborot siyosati bo'yicha maslahatchisi – <b>Jamoatchilik kengashi</b>	is@meteo.uz	(55) 503 21 20 (203)

*Izoh: Jamoatchilik kengashi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan shaxslar yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.*

O'zgidrometning  
2025 yil 18 iyundagi 73-Tson  
buyrug'iiga 2-ilova

**GIDROMETEOROLOGIYA XIZMATI AGENTLIGI JAMOATCHILIK KENGASHI  
TO'G'RISIDAGI NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Gidrometeorologiya xizmati agentligi jamoatchilik kengashi to'g'risdagi nizom (keyingi o'rirlarda – Nizom) O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati agentligi (keyingi o'rirlarda – Agentlik) jamoatchilik kengashining (keyingi o'rirlarda – Jamoatchilik kengashi) asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlarini va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Jamoatchilik kengashi o'z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengash organi hisoblanadi.

3. Jamoatchilik kengashi Agentlikning markaziy apparati huzurida tashkil etiladi va uning faoliyati O'zgidrometning barcha hududiy gidrometeorologiya markazlari hamda tasarrufidagi tashkilotlariga tatbiq etiladi.

4. Jamoatchilik kengashi Agentlik rahbarining qarori bilan tashkil etiladi.

5. Jamoatchilik kengashining qarorlari tavsiyaviy xususiyatga ega.

6. Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi buyruqlari va farmoyishlariga, mazkur Nizomga hamda boshqa qonun hujjatlari amal qiladi.

7. Jamoatchilik kengashi to'g'risdagi nizom va unga kiritiladigan o'zgartishlar hamda qo'shimchalar Agentlik rahbarining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

**2-bob. Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari, funksiyalari,  
huquqlari va majburiyatlar**

8. Quyidagilar jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari hisoblanadi:

qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarni, jamiyat manfaatlarni himoya qilish sohasida qonun hujjatlari talablari ijrosini ta'minlash, Agentlik zimmasiga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariiga daxl qiluvchi vazifalar va funksiyalarni bajarish, davlat xizmatlarini ko'rsatish, ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihamar va dasturlarni ro'yogga chiqarish bo'yicha O'zgidromet va uning mansabdor shaxslarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

birgalikda muloqot qilish, Agentlikning nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash uchun Agentlikni fuqarolar bilan bog'lab turadigan "ko'prik" rolini bajarish;

Agentlikka nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan kelib tushgan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihamarni umumlashtirish va baholash;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariaga daxl qiluvchi eng muhim masalalar yuzasidan Agentlikning faoliyati haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli monitoring qilish

va har tomonlama tahlil qilish, sotsiologik so'rovlar o'tkazish, jumladan ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'tkazish;

Agentlik faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilgan ishlar ustidan monitoring va tahlil o'tkazish, shuningdek, ularning natijjalari bo'yicha takliflar tayyorlash;

Agentlik faoliyatining ochiqligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish, uning faoliyati to'g'risida batafsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni yanada kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Agentlikning rasmiy veb-saytida jamoatchilik kengashi faoliyati bilan bog'liq ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni joylashtirib borish hamda ularning har chorakda yangilanib borilishini ta'minlash;

Agentlik faoliyatini isloh qilishda fuqarolar ishtirok etishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganish va ularni yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Agentlik faoliyati bo'yicha fuqarolar o'rtasida o'tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

Agentlik xodimlari va ular oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart-sharoitlarini, ularga malakali tibbiy yordam ko'rsatish sharoitlarini, shuningdek, ishdan bo'shatilgan yoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish bo'yicha muammolarini kompleks tahlil qilish hamda tahlil yakunlari bo'yicha mazkur sharoitlarni yaxshilash yuzasidan takliflar kiritish.

9. Jamoatchilik kengashi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Agentlikning faoliyatiga doir masalalar yuzasidan fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatni boshqa institutlarining tashabbuslari hamda murojaatlarni ko'rib chiqishda ishtirok etadi, shuningdek, ularni ko'rib chiqish natijjalari bo'yicha davlat organiga tegishli takliflar kiritadi;

Agentlikning fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro hamkorligini tahlil qiladi, shuningdek, hamkorlikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

Agentlik faoliyatiga taalluqli uning normativ-huquqiy hujjatlari va qarorlarini takomillashtirish, ulardagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi, shuningdek, kiritilgan takliflarni Agentlik xodimlari o'rtasida muhokama qilishga bag'ishlangan tadbirlarni tashkil etishda qatnashadi;

davlat dasturlari loyihamonlari, tadbirlar rejalarini va Agentlik faoliyatiga taalluqli, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi boshqa hujjatlarni ishlab chiqish yuzasidan takliflar tayyorlaydi, qabul qilingan dasturlarni amalga oshirishda vakolatlari doirasida ishtirok etadi, bajarilgan ishlarning samaradorligini tahlil qiladi, shuningdek, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

Agentlikka nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan kelib tushgan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihamoni ko'rib chiqadi;

Agentlik rahbarlari va xodimlarining fuqarolar bilan uchrashuvlarini, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarni ko'rib chiqish bilan bog'liq ishlarni tashkil etishda, shu jumladan joylarga borib tashkil etishda qatnashadi, ularning amalga oshirilishi ustidan monitoring o'tkazadi;

Agentlik xodimlari va ular oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart-sharoitlarini, ularga malakali tibbiy yordam ko'rsatish sharoitlarini yaxshilashda, shuningdek, ishdan bo'shatilgan yoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish muammolarini hal etishda ko'maklashadi;

xodimlar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy va huquqiy himoya qilish masalalari bo'yicha Agentlik xodimlari o'rtasida keng tushuntirish ishlarini tashkil etadi;

Agentlikda, uning hududiy gidrometeorologiya markazlarida va tasarrufidagi tashkilotlarida sog'lom ishchanlik muhitini rivojlantirish, qonuniylikni, yuksak huquqiy madaniyat va axloqiylikni ta'minlash, xodimlarda Vatanga sodiqlik ruhini va qonunlarga bo'lgan hurmatni kuchaytirish, ularni ijtimoiy, siyosiy, ruhiy va ma'naviy-ma'rifiy kamol toptirish, shuningdek, mazkur sohadagi ilmiy-ma'rifiy va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

mamlakatda va xorijda keng jamoatchilikni Agentlik faoliyatini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar haqida muntazam ravishda xabardor qilishni ta'minlaydi hamda mavjud muammolarni hal qilish va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

Agentlik faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlarini tashkil etishda ishtirot etadi;

Agentlik faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish bo'yicha bajarilayotgan ishlarning natijalarini tahlii qiladi, ularning samaradorligini oshirish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamda fuqarolar bilan hamkorlik qiladi.

10. Jamoatchilik kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun:

Agentlik tomonidan tashkil etiladigan bo'lajak ochiq hay'at majlislari va boshqa ommaviy tadbirlar to'g'risidagi axborotni oldindan olish hamda mazkur tadbirlarda ishtirot etish; davlat organining, jumladan uning hududiy bo'linmalari va tasarrufidagi tashkilotlarining binolari (xonalar) va boshqa obyektlarini Agentlik tomonidan belgilangan tartibda borib ko'rish;

Agentlikka, uning hududiy gidrometeorologiya markazlariga va tasarrufidagi tashkilotlari rahbarlariga jamoatchilik kengashi vakolatiga kirdigan masalalar yuzasidan takliflar kiritish;

Agentlik faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan davlat organining axborotlari, statistika va boshqa materiallarini belgilangan tartibda olish;

Agentlikning qonun ijodkorligi faoliyatida, Agentlik tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarining jamoatchilik va ekspertlar muhokamasini ta'minlashda ishtirot etish;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlariiga Agentlik tomonidan berilgan javoblarining sifatini tanlab olgan holda tahlil qilish;

Agentlik xodimlarining roziligi bilan ularning uy-joy, ijtimoiy-maishiy va xizmat shart-sharoitlari bilan tanishish;

jamoatchilik kengashi majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni yoritish bo'yicha ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;

yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun konferensiyalar, forumlar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish huquqiga ega.

Jamoatchilik kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

11. Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatini amalga oshirishda:

jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilishi;

Agentlik faoliyati bilan bog'liq qonun hujjatlarida belgilangan cheklovlargacha amal qilishi;

Agentlik va uning mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan faoliyatiga aralashmasligi;

Agentlik va uning mansabdor shaxslari faoliyat ko'rsatishi uchun to'sqinlik qilmasligi;

fugorolarning or-nomusiga va qadr-qimmatini tahqirlashga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'ymasligi;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirish davomida olingan axborotning, agar bunday axborotni tarqatish qonun bilan cheklangan bo'lsa, maxfiyligiga rioya qilishi shart.

Jamoatchilik kengashining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

### **3-bob. Jamoatchilik kengashining tarkibini shakllantirish va ishini tashkil etish tartibi**

12. Jamoatchilik kengashining tarkibiga uning raisi, rais o'rribosari, kotibi va a'zolari kiradi.

13. Jamoatchilik kengashi a'zoligiga, qoida tariqasida, Agentlikda namunalni xizmat ko'rsatgan mehnat faxriylari, jamoatchilik faoliyati sohalarida katta amaliy tajribaga ega obro'-e'tiborli fuqarolar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari qabul qilinadi.

Jamoatchilik kengashi a'zolarining soni 15 nafardan kam bo'lmagligi lozim.

14. Jamoatchilik kengashining tarkibi Agentlik rahbarining buyrugi bilan har 3 yilda tasdiqlanadi.

15. Quyidagi holatlarda jamoatchilik kengashining raisi, rais o'rribosari, kotibi va a'zolari uning tarkibidan chiqarilishi mumkin:

ular tomonidan jamoatchilik kengashi tarkibidan chiqish to'g'risida ariza berilganda;

jamoatchilik kengashining majlislarida mutazam ravishda ishtirok etmaganda, mazkur Nizomning 11-bandida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaganda;

ularga nisbatan chiqarilgan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda;

vafot etganda, shuningdek, sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori asosida ular muomalaga layoqatsiz, bedarak yo'qolgan yoki vafot etgan deb topilganda.

16. Jamoatchilik kengashining tasdiqlangan a'zolari haqidagi ma'lumotlar, shuningdek, ularning aloqa ma'lumotlari (telefon, pochta va elektron manzillari) va ularga kiritilgan o'zgartishlar ular tasdiqlangan paytdan boshlab 5 kun ichida davlat organining rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi shart.

17. Jamoatchilik kengashining raisi:

jamoatchilik kengashining faoliyatiga umumiyo rahbarlik qiladi;

jamoatchilik kengashining majlislarini chaqiradi va kun tartibini belgilaydi;

jamoatchilik kengashining majlislarida raislik qiladi;

jamoatchilik kengashining ish rejasini, majlisi bayonnomasini va boshqa hujjatlarini tasdiqlaydi;

jamoatchilik kengashi qarorlarining ijrosini nazorat qiladi;

jamoatchilik kengashi a'zolarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarilishini muvofiqlashtiradi;

Agentlikning rasmiy veb-saytida va boshqa resurslarda joylashtiriladigan jamoatchilik kengashining faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar tarkibi bo'yicha takliflar kiritadi va uni Agentlik rahbari bilan kelishadi;

jamoatchilik kengashi qarorlarini bajarish masalalari yuzasidan Agentlik rahbari bilan hamkorlik qiladi;

jamoatchilik kengashining samarali ishini ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

18. Jamoatchilik kengashining raisi bo'lmagan taqdirda, uning vakolatlari va majburiyatlarini rais o'rribosari bajaradi.

19. Jamoatchilik kengashi raisining o'rribosari:

rais yo'qligida jamoatchilik kengashining majlislarida raislik qiladi;

jamoatchilik kengashi qarorlarining ijrosini nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

fuqarolarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qiladi, shuningdek, jamoatchilik kengashi faoliyatiga taalluqli murojaatlarni ko'rib chiqish bo'yicha ishlarni tashkil etadi; jamoatchilik kengashining samarali ishlarni ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

20. Jamoatchilik kengashining kotibi:

jamoatchilik kengashining faoliyatini uslubiy, tashkiliy-huquqiy va tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash masalalarini hal qiladi;

jamoatchilik kengashining navbatdagi majlisiga barcha zarur materiallarni o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi, Agentlik xodimlaridan zarur hujjatlar va ma'lumotlarni so'rabb oladi;

kun tartibiga muvofiq jamoatchilik kengashi majlislari o'tkazilishini tashkil etadi;

jamoatchilik kengashi o'tkaziladigan sana, joy va taklif etiladigan shaxslar ro'yxatini jamoatchilik kengashining raisi bilan kelishadi;

jamoatchilik kengashining a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni jamoatchilik kengashi majlisi o'tkaziladigan joy, sana va vaqt haqida xabardor qiladi;

jamoatchilik kengashi qarorlarining ijro etilishi ustidan monitoring olib boradi va uning natijalarini jamoatchilik kengashi majlisida ko'rib chiqish bo'yicha takliflar kiritadi;

jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomaning jamoatchilik kengashi a'zolari hamda boshqa manfaatdor shaxslarga jo'natilishimi ta'minlaydi;

jamoatchilik kengashining samarali ishlashini ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

21. Jamoatchilik kengashining a'zolari o'z majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalarni muhokarma qilishda o'z vakolatini boshqalarga o'tkazish huquqiga ega emas.

Jamoatchilik kengashining majlisida ishtirok etish imkonini bo'lmagan holatlarda, uning a'zosi majlis kun tartibidagi masalalar bo'yicha o'z fikrini yozma shaklda yuborishi mumkin. Bunda uning fikri majlisda ko'rib chiqiladi va ovoz berishda hisobga olinadi.

Jamoatchilik kengashining a'zolari:

o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun Agentlik tomonidan tashkil etiladigan hay'at majlislarida va boshqa ommaviy tadbirlarda ishtirok etadi;

jamoatchilik kengashi ish rejalarining loyihalarni tayyorlaydi, ularni jamoatchilik kengashida ko'rib chiqish uchun kiritadi va tasdiqlangan ish rejalarini bajarilishini ta'minlaydi;

Agentlik faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda qatnashadi;

Agentlik xodimlari, ularning oila a'zolari bilan uchrashuvlar o'tkazadi va ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha takliflarni jamoatchilik kengashiga kiritadi;

jamoatchilik kengashining kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan tahliliy materiallarni tayyorlaydi;

jamoatchilik kengashining vakolatiga kiradigan masalalar bilan bog'liq murojaatlarni ko'rib chiqadi va natijalari bo'yicha tegishli hujjatlarni tayyorlaydi;

jamoatchilik kengashining zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

22. Jamoatchilik kengashi faoliyatining asosiy masalalari uning majlisida ko'rib chiqiladi. Jamoatchilik kengashining majlisi uning ish rejalarini asosida har chorakda kamida bir marta chaqiriladi.

Jamoatchilik kengashining raisi jamoatchilik kengashi a'zolarining uchdan bir qismining yozma murojaati asosida uning navbatdan tashqari majlisini chaqirishi mumkin.

Jamoatchilik kengashining yig'ilishlari va kun tartibidagi masalalar davlat organining rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi shart.

23. Jamoatchilik kengashining majlislariga boshqa davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatini institutlarining vakillari taklif etilishi mumkin.

24. Jamoatchilik kengashi majlisi kun tartibining loyihasi kotib tomonidan jamoatchilik kengashi a'zolarining takliflari va jamoatchilik kengashi raisining topshirig'i asosida shakllantiriladi.

25. Jamoatchilik kengashining majlisini uning raisi olib boradi. Rais ishtirok eta olmagan holatharda, majlisini uning o'rribosari olib boradi.

Jamoatchilik kengashining majlisida Agentlik rahbari, uning o'rribosarlari va boshqa xodimlar ishtirok etishi mumkin.

26. Jamoatchilik kengashining majlisi, agar unda jamoatchilik kengashi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi (kvorum) ishtirok etgan taqdirda vakolatlari hisoblanadi.

Majlisni o'tkazish uchun kvorum shakllanmagan taqdirda, jamoatchilik kengashining yangi majlisi o'tkaziladigan sana e'lon qilinadi.

27. Jamoatchilik kengashining qarori majlisda ishtirok etayotgan jamoatchilik kengashi a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

28. Jamoatchilik kengashining har bir a'zosi qabul qilinayotgan qarorlar bo'yicha o'zining fikrini yozma shaklda ifodalashga haqli. Uning fikri jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasiga majburiy tartibda qo'shib qo'yiladi.

29. Jamoatchilik kengashining majlisida qabul qilingan qaror bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi. Jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasi kotib tomonidan imzolanadi, majlisga raislik qiluvchi tomonidan tasdiqlanadi va uch kun muddatda davlat organiga, jamoatchilik kengashi a'zolarige va manfaatdor shaxslarga yuboriladi.

30. Jamoatchilik kengashining qarorini tezlik bilan qabul qilish zaruriyati tug'ilganda, uning raisi tashabbusi bilan qaror jamoatchilik kengashining a'zolari bilan kelishilgan holda so'rov yo'li bilan qabul qilinishi mumkin.

Agentlik jamoatchilik kengashining qabul qilgan qaroriga qo'shilmagan hollarda, jamoatchilik kengashining qarorini olgan kundan boshlab o'n kundan kechikmay unga asoslantirilgan e'tirozini yozma shaklda yuboradi.

31. Jamoatchilik kengashining kotibi kengash a'zolari ko'magida jamoatchilik kengashi qarorlari ijrosining borishini o'rganadi va ko'rib chiqadi, ziarur bo'lган hollarda, jamoatchilik kengashining raisiga tegishli takliflar kiritadi.

#### **4-bob. Yakunlovchi qoidalar**

32. Jamoatchilik kengashining faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash Agentlik tomonidan, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

33. Jamoatchilik kengashining faoliyati uning nizomiga va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq ekanligi davlat organining rahbari tomonidan nazorat qilinadi.

34. Jamoatchilik kengashining va Agentlik rahbarining jamoatchilik kengashi faoliyati bilan bog'liq qarorlari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

Ўзгидромет томонидан қабул килинган буйруқ, фармойиш ва йиғилиш  
баёнларини тарқатиш  
**ВАРАҚАСИ № 93-Т «18» 06. 2025 йил.**

1	Директор	001meteo@exat.uz	✓
2	Директор ўринбосари (И.Каримов)	002meteo@exat.uz	✓
3	Директорнинг раками технологияларни ривожлантириш масаласи бўйича маслаҳатчиси (Ф.Сафаров)	009meteo@exat.uz	✓
4	Директор ёрдамчиси (С.Позилов)		
5	Директорнинг маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш, давлат тили тўғрисидаги конун ҳужжатларига риоя этилишини маслаҳатчиси (К.Кулумбетов)		✓
6	Директорнинг ахборот сиёсати масалалари бўйича маслаҳатчиси-матбуот котиби (Н.Тошходжаева)	004meteo@exat.uz	✓
7	Гидрометеорологик кузатувлар ва атроф мухит сифати мониторинги бошқармаси бошлиги (лавозим бўйича)	016meteo@exat.uz	✓
8	Гидрометеорологик таъминоти бошқармаси (А.Нарзуллаев)	010meteo@exat.uz	✓
9	Авиацияни метеорологик таъминлаш бошқармаси (А.Зайнитдинова)	006meteo@exat.uz	✓
10	Табиий мухит ифлосланиши мониторинги бошқармаси	008meteo@exat.uz	
11	Иқлим ўзгариши оқибатларини баҳолаш (халқаро) бошқармаси	uzhaymet@meteo.uz	✓
12	Гидрометеорологик ускуналарни ва метеорологик локатор тармогини техник кўллаб-куватлаш бошқармаси (М.Бахтияров)	007meteo@exat.uz	✓
13	Инсон ресурсларини бошқариш бўлими (лавозим бўйича)	014meteo@exat.uz	✓
14	Хуқукий таъминлаш ва мажбуриятлар билан ишлаш бўлими (С.Исхакова)	005meteo@exat.uz	✓
15	Молия-иктисод ва режалаштириш бўлими ( Б.Холмуминов )	003meteo@exat.uz	
16	Бухгалтерия хисоб бўлими (Элбек)		✓
17	Ижро интизоми ва мурожаатлар билан ишлаш бўлими	014meteo@exat.uz	✓
18	Бино ва иншоотлар эксплуатация бошқармаси (П.Артиков)		✓
19	Умумий бўлим-Девонхона (Д.Азимов)	013meteo@exat.uz meteo@exat.uz	✓
20	Мехнат муҳофазаси бўлими		
21	Фуқаро муҳофазаси (Ш.Искадарова)		
21	Касаба уошмаси	mtb@meteo.uz	✓
23	Метеоинфоком ДМ (Ф.Болтабоев)	011meteo@exat.uz	✓
24	Гидрометеорология илмий-тадқиқот институти	015meteo@exat.uz	✓
25	Тошкент гидрометеорология техникими (Е.Даулетов)		✓

**Вилоят ҳудудий бошқармалари**

1	Тошкент шаҳар ГМБ	01meteo@exat.uz	✓
2	Тошкент вилояти ГМБ	10meteo@exat.uz	✓
3	Андижон ГМБ	60meteo@exat.uz	✓
4	Фарғона ГМБ	40meteo@exat.uz	✓
5	Наманган ГМБ	50meteo@exat.uz	✓
6	Сирдарё ГМБ	20meteo@exat.uz	✓
7	Жиззах ГМБ	25meteo@exat.uz	✓
8	Самарқанд ГМБ	30meteo@exat.uz	✓
9	Сурхондарё ГМБ	75meteo@exat.uz	✓
10	Қашқадарё ГМБ	70meteo@exat.uz	✓
11	Навоий ГМБ	85meteo@exat.uz	✓
12	Бухоро ГМБ	80meteo@exat.uz	✓
13	Хоразм ГМБ	90meteo@exat.uz	✓
14	Коракалпогистон ГМБ	95meteo@exat.uz	✓

Тарқатма рўйхатига масъул Д.Азимов — А.Нарзуллаев